



UDK: 37.016:811'243-028.31

*Sharifa KARIMOVA,*  
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti  
E-mail: karimova.sh.76@mail.ru

O'zMPU dotsenti, f.f.n N.Ahmedova taqrizi asosida

#### AUTENTIK TIL MUHITINING LEKSIK KOMPETENSIYA SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Mazkur maqola autentik til muhitining chet til o'rganuvchilarda leksik kompetensiya shakllanishiga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. Leksik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Autentik materiallar (gazeta maqolalari, bloglar, podkastlar, filmlar va boshqa real kommunikativ manbalar) tilni tabiiy kontekstda o'zlashtirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada autentik matnlarni darajaga mos tanlash, vazifa asosidagi yondashuv va multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Xulosa sifatida autentik til muhitidan samarali foydalanish ESL/EFL darslarida leksik kompetensiyani shakllantirishning muhim va ustuvor omili ekani ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** autentik til muhiti, leksik kompetensiya, chet til o'qitish, ESL/EFL, autentik materiallar, kommunikativ kompetensiya, tabiiy kontekst, leksik ko'nikmalar.

#### THE IMPACT OF AN AUTHENTIC LANGUAGE ENVIRONMENT ON THE DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE

Annotation

This article is devoted to analyzing the impact of an authentic language environment on the development of lexical competence among foreign language learners. The theoretical foundations of the concept of lexical competence are outlined and explained on the basis of scholarly sources. Authentic materials (newspaper articles, blogs, podcasts, films, and other real communicative resources) are considered as a means of acquiring language in a natural context. The article also provides practical recommendations on selecting authentic texts according to learners' proficiency levels, applying a task-based approach, and using multimedia tools. In conclusion, it is emphasized that the effective use of an authentic language environment is an important and priority factor in developing lexical competence in ESL/EFL classes.

**Keywords:** authentic language environment, lexical competence, foreign language teaching, ESL/EFL, authentic materials, communicative competence, natural context, lexical skills.

#### ВЛИЯНИЕ АУТЕНТИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу влияния аутентичной языковой среды на формирование лексической компетенции у изучающих иностранный язык. Освещаются теоретические основы понятия лексической компетенции и даётся их объяснение на основе научных источников. Аутентичные материалы (газетные статьи, блоги, подкасты, фильмы и другие реальные коммуникативные источники) рассматриваются как средство усвоения языка в естественном контексте. В статье также представлены практические рекомендации по отбору аутентичных текстов с учётом уровня владения языком, применению задания-ориентированного подхода и использованию мультимедийных средств. В заключение подчёркивается, что эффективное использование аутентичной языковой среды является важным и приоритетным фактором формирования лексической компетенции на занятиях ESL/EFL.

**Ключевые слова:** аутентичная языковая среда, лексическая компетенция, обучение иностранному языку, ESL/EFL, аутентичные материалы, коммуникативная компетенция, естественный контекст, лексические навыки.

**Kirish.** Leksik kompetensiya - bu til o'rganayotgan shaxsning so'zlarni tushunish va to'g'ri, samarali qo'llash qobiliyatidir. Chet tilni o'rgatishda lug'at bilimining kengligi va chuqurligi tilning to'g'ri tushunilishi, ifodalanishi va muloqotda muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi. An'anaviy darslarda ko'pincha izolyatsiyalangan lug'at ro'yxatlari asosida o'rganiladi, biroq bu yondashuv tilni real hayot sharoitida qo'llashni yetarli darajada ta'minlay olmaydi. Shuning uchun til o'rgatish metodikasida autentik til muhitidan foydalanish til o'rganuvchilarning leksik kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Autentik til muhiti - bu til o'rganuvchilarga asl til materiallari orqali real kommunikativ kontekstni taqdim etadigan sharoitdir. Gilmore (2007) ta'kidlashicha, autentik materiallar - bu o'quvchilarga til o'rgatish maqsadida emas,

balki ona tilida so'zlashuvchilar uchun yaratilgan matnlar va audiovizual vositalardir. Masalan: Gazeta maqolalari, bloglar, reklama matnlari; Radio eshittirishlar, podkastlar, intervyular; Film va seriallar, ijtimoiy tarmoq videolari; Rasmiy hujjatlar, foydalanuvchi qo'llanmalari:

Autentik materiallar tilni "quruq", izolyatsiyalangan shaklda emas, balki to'g'ridan-to'g'ri nutq amaliyoti sifatida taqdim etadi.

Leksik kompetensiya - bu faqat so'zlarni yodlash emas, balki ularning ma'no, talaffuz, yozilishi, qo'llanish konteksti va kollokatsiyalarini (so'z birikmalari) ham o'z ichiga oladi. Nation (2013) nazariyasiga ko'ra, leksik bilim quyidagi elementlardan iborat: So'z shakli (forma), Ma'no va semantika, Qo'llanish imkoniyatlari, Kontekstual ma'no o'zgarishlari, Kollokatsiyalar va frazeologik birikmalar. Bu

komponentlarning har biri til o'rganuvchining nutq va yozma ifodada so'zlarni to'g'ri ishlatish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Autentik materiallar esa ana shu barcha aspektlarni real nutq kontekstida namoyon qiladi.

Stephen Krashenning (1985) "Input nazariyasi"ga ko'ra, til o'zlashtirish sharoitida o'quvchi batafsil, lekin tushunarli til materialiga duch kelishi zarur. Autentik materiallar - bu real til inputi bo'lib,  $i+1$  (o'quvchi darajasidan biroz yuqoriroq) darajada til materialini taqdim etadi. Bu sharoitda o'rganuvchi yangi leksik birliklarni kontekst orqali tushunadi.

Richard Schmidt (1990) e'tibor qaratish ("noticing") gipotizasini ilgari surdi: til xususiyatlarini o'zlashtirish uchun o'rganuvchi ularni farqlay bilishi va ongli ravishda sezishi lozim. Autentik materiallarda so'zlar va iboralar real kontekstda takrorlanadi, bu esa o'rganuvchining "sezish" jarayonini faollashtiradi.

Lewis (1993) ta'kidlaganidek, til o'rgatishda so'z birikmalari va kollokatsiyalarga e'tibor katta bo'lishi kerak. Autentik materiallar esa aynan so'z birikmalari, frazeologik birliklar, register va pragmatik ma'nolarni real holatda namoyish etadi.

Autentik materiallar - bu real kontekstli til inputi bo'lib, o'rganuvchilarga ko'proq so'z va iboralarni ma'nosini kontekst orqali aniqlash imkonini beradi. Masalan, gazetada uchraydigan so'zlarni tarjima qilmasdan oldin o'qish, ularni kontekstda tushunishga urinib ko'rish orqali o'quvchi so'zning yadro va keng ma'nolarini mustahkamlashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar autentik matnlar asosida o'rgangan so'zlarni yaxshiroq eslab qoladilar (Webb & Nation, 2017).

Autentik materiallar nafaqat tanib bilish (recognition), balki faol qo'llash (production) imkonini ham oshiradi. Bu, ayniqsa, kommunikativ vazifalar yordamida yuz beradi. Masalan, o'quvchilardan film bo'limi bo'yicha dialog yozish yoki blog post tayyorlash so'ralganda ular real til strukturasi asosida yangi so'zlarni faol ishlatadilar. Lee va Wallace (2019) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, autentik matnlardan foydalanilgan darslarda talabalar produktiv lug'at bilimida ancha yuqori o'sish ko'rsatgan.

Autentik matnlar tilning so'z birikmalari va idiomatik iboralarni tabiatiga mos ravishda ko'rsatadi. Masalan, "pull one's weight", "hit the ground running" kabi frazalar an'anaviy o'quv matnlarida kam uchraydi, lekin autentik kontekstlarda bu iboralar muloqotda qanday ishlashini ko'rish o'rganuvchilarga ularni faqat yodlamasdan, balki samarali ishlatishni ham o'rgatadi.

Autentik materiallar ko'pincha real hayot mavzulari, yangiliklar, madaniy hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Bu o'rganuvchilarda qiziqishni oshiradi va til o'rganishga ham motivatsiya beradi. Guariento va Morley (2001) ta'kidlaganidek, real dunyo matnlari o'rganuvchilarni aktiv ishtirok etishga undaydi, bu esa leksik kompetensiyani yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki Hsu va Chiu (2016) multimedia autentik inputining o'quvchilarni tinglab tushunish va so'z ma'nosini topish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Bu tadqiqotda talabalar real nutq qatorlarini tinglab lug'at testlarida statistika jihatidan yuqori natijalarga erishdi.

Harmer (2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ham shuni ko'rsatadiki, autentik matnlardan foydalanilgan o'quvchilarda lug'at tanish va tushunish testlarida sezilarli darajada o'sish kuzatildi.

Lee va Wallace (2019) tajribaviy ishida autentik materiallar bilan ishlangan guruh klassik metodlar bilan

ishlangan guruhdan produktiv lug'at testlarida yaxshiroq natija ko'rsatdi. Bunda talabalar so'zlarni qo'llash aniqligi va kontekstga mosligi bo'yicha yuqori ball oldi.

O'zbekistonlik tilshunos va metodist olimlar ham leksik kompetensiya va kommunikativ yondashuv masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, J. J. Jalolov (2012) ta'kidlashicha, chet til o'qitish jarayonida til birliklarini izolyatsiyada emas, balki nutqiy faoliyat bilan bog'liq holda o'rgatish samarali natija beradi. Uning fikricha, leksik birliklar funksional-qo'llanish tamoyili asosida o'zlashtirilganda, talabalarning kommunikativ salohiyati sezilarli darajada oshadi. Bu esa autentik materiallardan foydalanish g'oyasi bilan to'liq uyg'unlashadi.

Shuningdek, N.A. Muslimov (2016) professional ta'lim nazariyasida kompetensiyaviy yondashuvni asoslab berib, bilimning amaliy qo'llanish qobiliyati bilan baholanishini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, til o'rganish jarayonida nazariy bilim emas, balki real kommunikativ vaziyatda qo'llana olish muhim hisoblanadi. Bu esa autentik til muhitining ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

B.R. Raximovning (2018) tadqiqotlarida esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interaktiv va multimediali vositalar orqali chet til o'qitish samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan. Olimning fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autentik materiallarni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish imkonini beradi.

Sh.A. Abdullayeva (2019) kompetensiyaviy yondashuv doirasida chet til o'qitishda til ko'nikmalarini integrativ tarzda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. U leksik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Bu qarashlar autentik til muhiti orqali leksik bilimni tabiiy kontekstda shakllantirish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu tariqa, milliy ilmiy tadqiqotlar ham xorijiy olimlar nazariyalari bilan uyg'un holda autentik materiallardan foydalanish leksik kompetensiya shakllanishining muhim omili ekanini tasdiqlaydi.

Bu tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, autentik til muhitidan samarali foydalanish o'rganuvchilarning leksik kompetensiyasini har ikkala - reseptiv va prodaktiv - yo'nalishda sezilarli darajada oshiradi.

Amaliy qo'llash jarayonida autentik matnlarni darajaga mos tanlash juda muhim. Matn juda murakkab bo'lsa, o'quvchini chalkashtirishi mumkin. Biroq, osonlashtirilgan, lekin real kontekstni saqlab qolgan autentik matnlar orqali samarali dars o'tkazish mumkin.

Autentik materiallar bilan ishlashda vazifa asosidagi yondashuv qo'llanilishi lozim: matn asosida qisqacha yozma izoh tayyorlash, muloqotli topshiriqlar - rol o'ynash, taqqoslash va tahlil vazifalari.

Bu vazifalar talabalarni faollikka undaydi va leksik bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Multimedia vositalardan foydalanish. Podkast, video, yangiliklar saytlari kabi audiovizual autentik vositalar o'quvchilarni nafaqat lug'at, balki talaffuz, intonatsiya va nutq ritmi bilan tanishtiradi.

Xulosa qilib aytganda autentik til muhiti leksik kompetensiyaning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U o'quvchilarga real til kontekstida so'zlarni tanish, tushunish va faol qo'llash imkonini beradi. Autentik materiallar reseptiv lug'at bilimini ochiq kontekstlar orqali mustahkamlasa, mahsus vazifalar orqali produktiv lug'at bilimini rivojlantiradi. Nazariy yondashuvlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autentik til muhitidan samarali foydalanish ESL/EFL dars metodikasida ustuvor o'rin egallashi lozim.

**ADABIYOTLAR**

1. Abdullayeva, Sh. A. (2019). Competency-Based Approach in Language Education. *Journal of Pedagogical Sciences of Uzbekistan*.
2. Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning. *Language Teaching*, 40(2), 97–118.
3. Guariento, W., & Morley, J. (2001). Text and task authenticity in the EFL classroom. *ELT Journal*, 55(4), 347–353.
4. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching* (5-edition). Pearson.
5. Hsu, L., & Chiu, C. (2016). Authentic multimedia listening materials and vocabulary acquisition. *Language Learning & Technology*, 20(3), 188–207.
6. Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi.
7. Lewis, M. (1993). *The Lexical Approach*. Language Teaching Publications.
8. Lee, S. K., & Wallace, A. (2019). Effects of authentic materials on ESL learners’ productive vocabulary. *TESOL Quarterly*, 53(2), 452–478.
9. Muslimov, N. A. (2016). *Professional ta’lim nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan.
10. Nation, I.S.P. (2013). *Learning Vocabulary in Another Language* (2-edition). Cambridge University Press.
11. Raximov, B. R. (2018). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta’lim samaradorligi*. Toshkent.
12. Schmidt, R. (1990). The role of consciousness in second language learning. *Applied Linguistics*, 11(2), 129–158.
13. Webb, S., & Nation, P. (2017). *How Vocabulary is Learned*. Oxford University Press